

Xalqaro ekspert ishtirokida “Garov reestri va ko’char mulk ta’minoti asosida moliyalashtirishni rivojlantirish” mavzusida tashkil etilgan amaliy seminar

2014 yil 28 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Banklar Assotsiatsiyasi tomonidan Xalqaro Moliya Korporatsiyasi bilan hamkorlikda “Garov reestri va ko’char mulk ta’minoti asosida moliyalashtirishni rivojlantirish” mavzusida amaliy seminar tashkil etildi.

Mazkur seminar O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi bazasida o‘tkazildi. Seminar ishida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Banklar Assotsiatsiyasi, moliya-kredit tashkilotlari ma’sul xodimlari, shuningdek Xalqaro moliya korporatsiyasi vakillari va xalqaro eksperti janob Saymon Tompson, Bank-moliya akademiyasi professor-o‘qituvchi tarkibi, magistrantlari va ilmiy xodimlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Seminar davomida so‘zga chiquvchilar O‘zbekiston Respublikasi “Garov reestri to‘g‘risida”gi Konunining talablaridan kelib chiqqan holda garov reestri yuritish hamda ko’char mulk ta’minoti asosida moliyalashtirishni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan mazmunli ma’ruzalar va prezentatsiyalarni taqdim etdilar.

Seminar yakunida soha mutaxassislari tomonidan seminar ishtirokchilaridan kelib tushgan savollarga batafsil javob berildi.